



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

Xaydarova Namunaxon Adhamjonovna
Qo‘qon davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Geymifikatsiyaning ta’lim jarayonidagi motivatsion, kognitiv va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinib, uning bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuv sifatida geymifikatsiya texnologiyalarini joriy etishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: geymifikatsiya, kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta’lim, bo‘lajak tarbiyachi, innovatsion texnologiyalar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Хайдарова Намунахон Адхамжоновна
Кокандский государственный университета, базовый докторант

Аннотация

В статье рассматривается педагогическое значение использования технологий геймификации в развитии профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольного образования. Проанализированы мотивационные, когнитивные и практические возможности геймификации в образовательном процессе, а также обоснована её роль в формировании профессиональных знаний, умений и навыков будущих специалистов. Доказана эффективность внедрения технологий геймификации как инновационного подхода в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: геймификация, профессиональная компетентность, дошкольное образование, будущий воспитатель, инновационные технологии.

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATORS BASED ON GAMIFICATION TECHNOLOGIES

Xaydarova Namunaxon Adhamjonovna
Kokand State University, PhD student

Abstract

This article examines the pedagogical significance of using gamification technologies in developing the professional competence of future preschool educators. The motivational, cognitive, and practical potentials of gamification in the educational process are analyzed, and its role in forming professional knowledge, skills, and abilities of future educators is substantiated. The effectiveness of implementing gamification technologies as an innovative approach in the preschool education system is scientifically justified.

Keywords: gamification, professional competence, preschool education, future

educator, innovative technologies.

Globallashuv jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada kuchaytirmoqda. Bugungi kunda jamiyat ehtiyojlariga mos, innovatsion fikrlay oladigan, mustaqil kasbiy qarorlar qabul qilishga qodir hamda pedagogik jarayonlarni samarali tashkil eta oladigan kadrlarni tayyorlash muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbiy kompetentligi faqat nazariy bilimlar majmuasi bilan belgilanmaydi, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, amaliyotda innovatsion yondashuvlarni qo'llash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu sababli bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida metodik, kommunikativ hamda refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari talabalarning doimiy faolligini ta'minlash va yetarli kasbiy tayyorgarlik darajasiga erishish uchun har doim ham yetarli emas. Mazkur holat o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa ta'lim faolligi va motivatsiyasini oshiruvchi zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni taqozo etadi. Shunday texnologiyalardan biri sifatida geymifikatsiya ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Geymifikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy vaziyatlarni modellashirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada geymifikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularni bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayoniga samarali integratsiya qilish yo'llari yoritiladi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, xususan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar pedagogika fanida ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy manbalar tahlili kasbiy kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy tuzilmasi hamda shakllanish mexanizmlariga doir turli nazariy yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Kasbiy kompetentlikning nazariy asoslari xorijiy olimlar tomonidan keng yoritilgan. Xususan, I.A.Zimnyaya kasbiy kompetentlikni shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishini ta'minlovchi integrativ sifat sifatida izohlab, bunda bilim, tajriba, motivatsiya va shaxsiy xususiyatlar o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Olimning yondashuviga ko'ra, kompetentlik faqat bilimlar yig'indisi emas, balki ushbu bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Mazkur qarash bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlashning nazariy asoslarini belgilashda muhim manba hisoblanadi.

A.V.Xutorskoy kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim natijalarini belgilovchi yetakchi mezon sifatida ko'rib, kasbiy kompetentlikni shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarni hal etishi hamda refleksiv tahlil yurita olishi bilan bog'laydi. Tadqiqotchi kompetensiyalarni shakllantirishda faol va interaktiv metodlarning o'rni alohida muhim ekanini asoslaydi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlar tarbiyachining

kasbiy tayyorgarligi pedagogik, psixologik hamda metodik komponentlar integratsiyasi asosida shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlarda bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligi bolalar bilan ishlashga tayyorgarlik, pedagogik muloqot madaniyati hamda innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llash layoqati orqali namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari doirasida geymifikatsiyaning pedagogik salohiyati xorijiy tadqiqotchilar tomonidan alohida tadqiq etilgan. Jumladan, S.Deterding, K.Werbach va D.Hunter geymifikatsiyani noo'yin muhitda o'yin mexanikasini qo'llash orqali ishtirokchilarning jalb etilganligi va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan texnologiya sifatida ta'riflaydi. Ularning ishlarida geymifikatsiya ta'lim jarayonining samaradorligini kuchaytirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita ekanligi ilmiy asoslangan.

Pedagogik adabiyotlarda ham geymifikatsiyaning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilib, o'yinlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarning o'quv faoliyatiga qiziqishi ortishi, ularning o'quv jarayonida faol subyektga aylanishi qayd etiladi. Ayniqsa, bo'lajak tarbiyachilar tayyorlashda o'yin elementlari asosida tuzilgan topshiriqlar kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va amaliy tajriba orttirish uchun samarali instrument sifatida baholanadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham kasbiy kompetentlik va innovatsion texnologiyalar masalalariga keng e'tibor qaratilib, bo'lajak pedagoglar kompetentligini rivojlantirishda faol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda interaktiv ta'lim shakllaridan foydalanish zarurligi ilmiy asoslanadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sohasida geymifikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari kompleks tadqiq etilmaganligi ta'kidlanadi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, geymifikatsiya texnologiyalarining bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi pedagogik salohiyati yuqori bo'lsa-da, mazkur yo'nalishda aniq metodik tavsiyalar hamda amaliy tatbiq mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Aynan shu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab, uning ilmiy va amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kasbiy kompetentlik mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar hamda professional tajriba uyg'unligidan iborat integrativ tizim sifatida izohlanadi. Shu sababli bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni nafaqat nazariy tayyorgarlikni kuchaytirish, balki ularning amaliy kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashga qaratilishi lozim.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetentligi turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qila olish, ularni ilmiy asosda hal etish hamda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu kompetentlik tarkibiga metodik kompetentlik (o'quv faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish), kommunikativ kompetentlik (samarali pedagogik muloqot), ijtimoiy-psixologik kompetentlik (jamoada ishlash va moslashuv), axborot-kommunikatsion kompetentlik (raqamli vositalardan foydalanish) hamda reflektiv kompetentlik (o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish) kiradi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun talabalarning o'quv jarayonida faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi hamda kasbiy yo'naltirilgan tajriba orttirishi talab etiladi. Shu bois ta'lim faoliyatini faollashtiruvchi va motivatsiyani kuchaytiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Geymifikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga o'yin faoliyatiga xos elementlarni tizimli tarzda kiritish orqali o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion

yondashuv hisoblanadi. Bunda ball, reyting, bosqichma-bosqich o'sish, rag'bat va musobaqa mexanizmlari orqali ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va faol ishtiroki kuchaytiriladi.

Pedagogik jihatdan geymifikatsiya talabalarning ichki motivatsiyasini oshirish, o'qishga ongli munosabatni shakllantirish hamda bilimlarni faol o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida geymifikatsiyalashgan kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, bu texnologiya nazariy bilimlarning real pedagogik vaziyatlar bilan integratsiyasini ta'minlab, amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi va bo'lajak tarbiyachining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida geymifikatsiya texnologiyalarini qo'llash ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratadi. Jumladan, pedagogik vaziyatlarni modellash orqali kasbiy muammolarni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati ortadi.

Geymifikatsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar orasida kasbiy qaror qabul qilish, jamoada hamkorlikda ishlash hamda pedagogik muloqotni samarali yo'lga qo'yish kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. O'yin stsenariylari asosida qurilgan ta'lim jarayoni kasbiy faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirib, talabalarning o'quv jarayoniga jalb etilganligi va mas'uliyatini oshiradi. Bundan tashqari, geymifikatsiya refleksiv faoliyatni faollashtirib, talabalarni o'z bilim va ko'nikmalarini baholash, kasbiy harakatlar natijasini tahlil qilish hamda o'zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantirishga undaydi. Natijada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning barqaror va uzluksiz rivojlanish jarayoni ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonida faol subyekt sifatida ishtirokini kuchaytirib, ularning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda shaxsiy-professional sifatlarining uyg'un rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Geymifikatsiyalashgan ta'lim muhiti asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati nazariy bilimlarning amaliyot bilan integratsiyasini mustahkamlab, bo'lajak tarbiyachining pedagogik amaliyotga tayyorgarligini oshiradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv talabalar orasida kasbiy motivatsiya, mas'uliyat va refleksiv fikrlashni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida geymifikatsiya texnologiyalarini tizimli va maqsadli qo'llash bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuv kelajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlash sifatini yaxshilashga hamda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zimnyaya I.A. Ключевые компетенции как результат образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 38–45-betlar.
2. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании: научно-методическое пособие. – Москва: Эйдос, 2013. – 112–130-betlar.
3. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification. – Proceedings of the 15th International Academic MindTrek

- Conference. – New York: ACM Press, 2011. – pp. 9–15.
4. Werbach K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. – Philadelphia: Wharton Digital Press, 2012. – pp. 65–89.
 5. Hunicke R., LeBlanc M., Zubek R. MDA: A Formal Approach to Game Design and Game Research. – Proceedings of the AAAI Workshop. – San Jose, 2004. – pp. 1–5.
 6. Abdullaeva M.J. Pedagogik kompetentlik va uni shakllantirish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 74–92-betlar.
 7. Saidova G.B. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 56–70-betlar.
 8. Rasulova D.A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 101–118-betlar.
 9. OECD. Innovating Education and Educating for Innovation. – Paris: OECD Publishing, 2016. – pp. 23–41.
 10. Sharipov Sh.S. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 133–150-betlar.